



UDK: 81`27: 81`373.7

Malika RUSTAMOVA,

Doctoral student at Samarkand state institute of foreign languages

E-mail: ciaoamarcanda@gmail.com

Reviewer: University of Tashkent for Applied Sciences, department of foreign languages, associate professor, Sh. Bobojonova

O'ZBEK VA ITALYAN FRAZEOLIGIZMLARIDA IJOBIY VA SALBIY EMOTSIYALARNING IFODALANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va italyan tillarida emotsional holatlarni ifodalovchi frazeologik birliklarning o'rni, shakllanishi va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ijobiy va salbiy emotsiyalarni aks ettiruvchi frazeologizmlarning semantik, strukturaviy va funksional jihatlari o'rganiladi. O'zbek va italyan frazeologizmlari o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, ularning milliy mentalitet va madaniyat bilan bog'liqligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu ikki tilning frazeologik tizimidagi emotsional ifoda shakllarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologizmlar, emotsionallik, ijobiy va salbiy emotsiyalar, lingvomadaniy tadqiq, o'zbek tili, italyan tili.

ВЫРАЖЕНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫХ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫХ ЭМОЦИЙ В УЗБЕКСКИХ И ИТАЛЬЯНСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ

Аннотация

В данной статье анализируется роль, формирование и лингвокультурные особенности фразеологических единиц, выражающих эмоциональные состояния в узбекском и итальянском языках. В ходе исследования изучаются семантические, структурные и функциональные аспекты фразеологизмов, передающих положительные и отрицательные эмоции. Сходства и различия между узбекскими и итальянскими фразеологизмами рассматриваются с лингвокультурной точки зрения, а также выявляется их связь с национальным менталитетом и культурой. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию форм выражения эмоций в фразеологической системе этих двух языков.

Ключевые слова: Фразеологизмы, эмоциональность, положительные и отрицательные эмоции, лингвокультурное исследование, узбекский язык, итальянский язык.

EXPRESSION OF POSITIVE AND NEGATIVE EMOTIONS IN UZBEK AND ITALIAN PHRASEOLOGY

Annotation

This article analyzes the role, formation, and linguocultural characteristics of phraseological units that express emotional states in Uzbek and Italian. The study examines the semantic, structural, and functional aspects of phraseological expressions that convey positive and negative emotions. The similarities and differences between Uzbek and Italian phraseological units are analyzed from a linguocultural perspective, highlighting their connection to national mentality and culture. The findings of the study contribute to a deeper understanding of the ways emotions are expressed in the phraseological systems of these two languages.

Key words: Phraseology, emotionality, positive and negative emotions, linguocultural study, Uzbek language, Italian language.

Kirish. Til inson tafakkuri va madaniyatining aksidir. Unda xalqning tarixi, turmush tarzi va dunyoqarashi mujassam topgan. Frazeologik birliklar esa tilning eng boy va mazmunan chuqur qatlamlaridan biri bo'lib, ular orqali xalqning emotsional holatlari, hissiy tajribalari va madaniy qarashlari ifodalanadi. Har bir xalqning o'ziga xos hissiyati va emotsional dunyoqarashi uning frazeologiyasida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek va italyan tillaridagi ijobiy va salbiy emotsiyalarni aks ettiruvchi frazeologizmlarni tadqiq qilish lingvistika va madaniyatshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birliklar kommunikativ jarayonda nafaqat ma'no uzatish, balki muayyan hissiy holatni ham aks ettirish vazifasini bajaradi. Ular tilning obrazlilik, ta'sirchanlik va ifodaliylik xususiyatlarini kuchaytiradi. Ayniqsa, ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar odamlarning kundalik nutqida keng qo'llaniladi va nutqiy uslubni boyitadi. Masalan, o'zbek tilida ko'ngli tog'dek ko'tarildi yoki ko'ngli vayron bo'ldi kabi iboralar insonning hissiy holatini aniq ifodalasa, italyan tilida essere al settimo cielo (yettinchi osmonda bo'lish – juda baxtli bo'lish) yoki avere il cuore spezzato (yuragi sinish – chuqur qayg'uga tushish) kabi frazeologizmlar emotsional ekspressiyani kuchaytiradi.

O'zbek va italyan tillaridagi emotsional frazeologizmlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganish ushbu tillarning o'ziga xos jihatlari aniqlashga va ularning xalq hayoti hamda milliy mentalitet bilan bog'liqligini tahlil qilishga imkon beradi. Mazkur tadqiqot orqali ushbu ikki til frazeologizmlarining o'xshashlik va tafovutlari aniqlanib, emotsional ifodalarning milliy-madaniy xususiyatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Frazeologik birliklarni tadqiq etish lingvistika, madaniyatshunoslik va psixolingvistika doirasida muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Frazeologizmlarning emotsional ifoda vositasi sifatida o'rganilishi ko'plab tilshunoslardan keng yoritilgan. Shu jumladan, G. X. Obruyeva [9] va Y. Nurmuhammedov [8] o'zbek tilidagi frazeologizmlarning tarkibiy va semantik xususiyatlarini tadqiq qilib, ularning emotsional ifodalash quvvati haqida muhim ma'lumotlar taqdim etgan. A. E. Mamatov [4] o'zbek tilidagi frazeologizmlarning shakllanishi va lingvistik normalari haqida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Italyan tilida frazeologizmlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish tadqiqotchilar qatorida A. Cattaneo [1] va M. T. Loporcaro [3] kabi olimlarni ko'rsatish mumkin. Ularning tadqiqotlarida italyan frazeologizmlarining madaniy asoslari va ularning ekspressiv funksiyalari chuqur tahlil qilingan. Bundan tashqari, emotsional frazeologizmlar madaniyat va xalq mentaliteti bilan uzviy bog'liq ekanligi V. A. Maslova [7] va R. Lakoff [2] tomonidan ham o'z izlanishlarida tasdiqlangan.

O'zbek va italyan tillarida ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shunday bo'lsa-da, umumiy frazeologik xususiyatlar va emotsional ifoda vositalari haqidagi ilmiy manbalar ushbu maqolaning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda tasviriy va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Frazeologizmlarning emotsional funksiyalarini chuqur o'rganish maqsadida, avvalo, deskriptiv tahlil usuli qo'llanilib, o'zbek va italyan tillarida ijobiy hamda salbiy

emotsiyalarni ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik va strukturaviy xususiyatlari o'rganildi. Keyinchalik, qiyosiy tahlil yordamida ushbu frazeologizmlar o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Frazeologizmlarning madaniy kontekst bilan bog'liqligini tahlil qilish uchun lingvomadaniy yondashuv qo'llanildi. Bu esa xalq mentaliteti, tarixiy an'ana va ijtimoiy omillar frazeologizmlar tarkibiga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlarning qo'llanilish chastotasi va ularning umumiy tizimdagi o'rni statistik usul yordamida baholandi. Ushbu metodlar asosida o'zbek va italyan tillaridagi frazeologik birliklarning emotsional va lingvomadaniy jihatlari mukammal tahlil qilindi.

Natijalar tahlili va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va italyan tillarida emotsional frazeologizmlar xalqning milliy mentaliteti, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir. Ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar semantik, strukturaviy va funksional jihatdan farq qilsa-da, ularning asosiy vazifasi inson hissiyotlarini chuqur ifodalashdan iborat.

O'zbek va italyan tillaridagi ijobiy emotsional frazeologizmlar quvonch, baxt, qoniqlik va ruhiy yuksalish holatlarini aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilidagi ko'ngli tog'dek ko'tarildi yoki baxtdan boshi osmonga yetdi iboralar insonning ichki ruhiy holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Xuddi shu ma'noda italyan tilida essere al settimo cielo (yettinchi osmonda bo'lish) iborasi qo'llaniladi [1]. Ushbu frazeologizmlar semantik jihatdan yaqin bo'lsa-da, ularning tasviriy unsurlari milliy madaniyat va dunyoqarash bilan bog'liq. O'zbek tilida ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar ko'pincha ko'ngil, yurak, ko'z kabi inson tana a'zolari bilan bog'liq bo'lib, ular orqali hissiy holatlar tasvirlanadi. Masalan, ochiq ko'ngil, yurakdan qilmoq kabi iboralar insonning ichki dunyosini ifodalashda keng qo'llaniladi. Bu iboralar o'zbek madaniyatida insonning ichki hissiyotiga alohida e'tibor berilishini ko'rsatadi. Italyan tilida esa ijobiy emotsiyalar ko'pincha tabiat, kosmos va diniy tasavvurlar bilan bog'liq. Misol uchun, essere al settimo cielo (yettinchi osmonda bo'lish) iborasi diniy va kosmik tasavvurlar asosida shakllangan bo'lib, bu italyan madaniyatida yuqori darajadagi baxtni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu farq har ikki tilning madaniy kontekstdagi qarashlari va metaforik asoslari bilan bog'liqdir [3].

Salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar ham o'zbek va italyan tillarida keng uchraydi. O'zbek tilida ko'ngli vayron bo'ldi yoki yuragi siqildi kabi iboralar insonning qayg'u, tushkunlik va umidsizlik holatlarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Xuddi shu ma'noda italyan tilida avere il cuore spezzato (yuragi sinish) yoki essere giù di morale (ruhiy tushkunlikka tushish) kabi iboralar salbiy emotsiyalarni chuqurroq va dramatik tarzda ifodalaydi [7].

Funksional jihatlaridan ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar ikkala tilda ham nutqiy uslubni boyitish va hissiy ta'sirchanlikni oshirish vazifasini bajaradi. O'zbek tilida ko'zlari porladi (juda xursand bo'lish) kabi iboralar nutqga jo'shqinlik va hayajon kiritadi. Italyan tilida esa avere le stelle negli occhi (ko'zlarida yulduzlar bo'lish) iborasi orzu va umidni ifodalashda keng qo'llaniladi. Salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar esa odatda tashvish, qayg'u va hasratni tasvirlash uchun ishlatiladi. O'zbek tilida joni azobda (qattiq tashvishli bo'lish) iborasi insonning ruhiy holatini chuqur ifodalaydi. Italyan tilida esa essere giù di morale (kayfiyati past bo'lish) iborasi ruhiy tushkunlikni tasvirlashda qo'llaniladi.

Frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki til o'ziga xos emotsional tasvirlarga ega bo'lsa-da, ularning aksariyati umumiy psixologik va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Masalan, baxt va quvonch holati har ikki tilda ham yuksalish, osmonga chiqish kabi tasvirlar orqali ifodalansa, tushkunlik va qayg'u aksincha, yiqilish, sinish yoki qorong'ilik kabi metaforalar bilan bog'liq bo'ladi [9]. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va italyan frazeologik tizimlarida emotsional ifodalar milliy mentalitetga bog'liq bo'lsa-da, ular umumiy insoniy tajribaga asoslanadi. Misol uchun, avere il cuore in pace (yurak tinch bo'lish) va o'zbek tilidagi ko'ngli hotirjam bo'lmoq iborasi diniy va ruhiy tinchlikni ifodalaydi.

Tadqiqot davomida o'zbek va italyan tillarida ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlarning qo'llanilish chastotasi statistik usul yordamida baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilida ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlarga nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Italyan tilida esa salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlarga nisbatan biroz ko'proq qo'llaniladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek va italyan tillaridagi frazeologik birliklar emotsional holatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ijobiy va salbiy emotsiyalarni aks ettiruvchi frazeologizmlar ikkala tilning ham lingvomadaniy xususiyatlarini ochib beradi. O'zbek tilida insonning ichki dunyosi va hissiyotlari asosiy o'rin tutadi, italyan tilida esa tabiat, kosmos va diniy tasavvurlar keng o'rin tutadi. Bu farqlar ikkala xalqning madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlariga bog'liqdir. Tadqiqot natijalari frazeologizmlarni o'rganish orqali madaniyatlararo tushunishni oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Cattaneo A. Italian Phraseology: Semantic and Pragmatic Aspects. Milan: Lingua Press; 2012. p. 250.
2. Lakoff R. The role of metaphor in language and thought. J Pragmat. 1993;20(3):213-245.
3. Loporcario MT. Language and Emotion in Italian Expressions. Rome: Cultural Linguistics Journal; 2018. p. 198.
4. Mamatov AE. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Tashkent; 1991.
5. Mamatov AE. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. Tashkent; 1997.
6. Mamatov AE. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. Tashkent: O'TA; 2001. (3-son).
7. Maslova VA. Cultural Linguistics and Phraseology. Moscow: Language & Culture Press; 2004. p. 315.
8. Nurmuhamedov Y. Frazeologiyaning dolzarb masalalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand: SamDCHTI; 2022. p. 90.
9. Obruyeva GX. Frazeologiyaning dolzarb masalalari. Samarqand: SamDCHTI; 2023.